




## POLITICAL EVENTS OF THE 16TH–19TH CENTURIES AND THEIR IMPACT ON THE ETHNIC COMPOSITION OF THE POPULATION OF BAKHMAL DISTRICT

**E'zoza Toraeva**

Teacher

Jizzakh State Pedagogical University

Jizzakh, Uzbekistan

### ABOUT ARTICLE

**Key words:** Bakhmal, 16th–19th centuries, ethnic composition.

**Received:** 28.05.25

**Accepted:** 10.06.25

**Published:** 14.06.25

**Abstract:** This article reflects the political events of the 16th–19th centuries and their impact on the ethnic composition of the population of Bakhmal district, as well as changes in the dynamic structure of the population.

## XVI-XIX ASRDAGI SIYOSIY VOQEALAR VA UNING BAXMAL TUMANI AHOLISINING ETNIK TARKIBIGA TA'SIRI

**E'zoza To'rayeva**

O'qituvchi

Jizzax davlat pedagogika universiteti

Jizzax, O'zbekiston

### MAQOLA HAQIDA

**Kalit so'zlar:** Baxmal, XVI-XIX aslar, etnik tarkib.

**Annotatsiya:** Ushbu maqolada XVI-XIX asrdagi siyosiy voqealar va uning Baxmal tumani aholisining etnik tarkibiga ta'siri, aholining dinamik tarkibi o'zgarishi holatlari aks etgan.

## ПОЛИТИЧЕСКИЕ СОБЫТИЯ XVI–XIX ВЕКОВ И ИХ ВЛИЯНИЕ НА ЭТНИЧЕСКИЙ СОСТАВ НАСЕЛЕНИЯ БАХМАЛЬСКОГО РАЙОНА

**Эъзоза Тураева**

Преподаватель

Джизакский государственный педагогический университет

Джизак, Узбекистан

### О СТАТЬЕ

**Ключевые слова:** Бахмал, XVI–XIX века, этнический состав.

**Аннотация:** В данной статье отражены политические события XVI–XIX веков и их влияние на этнический состав населения Бахмальского района, а также изменения в динамической структуре населения.

Tadqiqotchilarning ta’kidlashicha, XIX asr oxiri – XX asr boshlarida Baxmal tumanida yashagan aholining etnik tarkibi ancha murakkab bo’lgan turli urug’ va elat vakillaridan tarkib topgan. Baxmal tumani aholisining etnik tarkibini o’rganishda 1917, 1920, 1924, 1926 yillarda o’tkazilgan aholi ro’yxati ma’lumotlari[7] hamda Zarafshon vohasida tadqiqotlar olib borgan V.V.Radlov, A.D.Grebenkin[9] va L.N.Sobolev kabi olimlarning to’plagan statistik ma’lumotlari biz uchun qimmatli manba bo’lib xizmat qiladi.

Zero, tarixiy dalillar tumanning o’troq aholisi turlitarixiy davrlarda ko’chib kelgan urug’ va qavmlarning mushtarak etnik birligini tashkil qilsada, o’zining kelib chiqishi, urf-odatlar va ayrim milliy an’alarini saqlab qolganligi bilan bir-biridan ajralib turganligini ko’rsatmoqda. O’zbekiston Respublikasi Markaziy Davlat Arxivining 21-fondi, 17-ro’yxatida XIX asr oxirlaridagi statistik ma’lumotlar Jizzax uyezdi volostlarida aholining joylashuvi, xo’jaliklar va aholi soni, bog’ va tomorqa ekinining yer maydoni, chorva soni to’g’risida muhim ma’lumotlar beradi. Bu statistik ma’lumotlarda 1871 yilda Jizzax uездida 157 taqishloq, 7 104 ta oila - xo’jalik, 22 725 tadan ortiq aholi, shundan Jizzax shahrida va jami uезд bo’yicha rusiyzabon aholi oila-xo’jaligi 70 tadan ortiq, hammasi bo’lib 91 kishi istiqomat qilganligi ta’kidlanadi. Ushbu ma’lumotlar to’liq olinmagan bo’lishi ham mumkin. Chunki o’sha davrlarda aholi soni biror marotaba ham ro’yxatga olinmagan, rossiyalik harbiylarning o’zlari qishloqqa qishloq yurishib ma’lumot to’plashga muvaffaq bo’lganlar.

Ma’lumki, Samarqand viloyatining etnografik xaritasini yaratish uchun 1922 yil 20 iyulda Samarqand, Kattaqo’rg’on va Jizzax uездining bir qismiga (Sovnarkom tomonidan) 7 haftalik etnografik ekspeditsiya uyushtiriladi [12:52]. Ushbu ekspeditsiya tarkibi 4 kishidan iborat bo’lib, ular Samarqand viloyatining jami 47 ta volosti aholisining etnik tarkibi haqida statistik ma’lumot yig’ishadi. Mazkur statistik va etnografik ma’lumotlar asosida biz Baxmal tumanida o’zining kelib chiqishi jihatidan xilma-xil etnik guruhlar istiqomat qilganligini, ular hududda turlicha tarqalib joylashganligini bilishimiz mumkin.

Baxmal tumanida son jihatidan eng ko’p qabilalari chida eng yirigi bu yuz qabilalasidir. Yuz (juz)lar 92 bo’li o’zbek elatining eng katta urug’ va qabilalaridan biri hisoblanib, so’nggi o’rta asrlarda e’tirof etilgan. Yuz urug’ining shajarasi haqidagi dastlabki dala tadqiqotlari va yozma ma’lumotlarni qoldirgan A.D.Grebenkin, mazkur urug’ni o’zbek urug’lari ichida son jihatidan yetakchi mavqega ega ekanligini ta’kidlaydi[9:93].

Vatan tarixidan bizga ma’lumki, XVI asrdan boshlab Movarounnahr hududiga Dashti Qipchoqdan ko’plab qabilalar ko’chib kela boshlaganlar. Ular orasida qipchoq, saroy, qo’ng’irot, yuz,

nayman, mang'it, ktay (xitoy)lar yirik qabilalar hisoblanib, har birining soni 30-50 mingdan to 200 mingtagacha yetgan [13:77]. Yuzlar 92 o'zbek urug'-qabilalari orasidagi yirik va ko'p sonlilardan biri hisoblanadi[14:83,85]. "Tuxfatat-tavorixi xoniy", «Majmuat-tavorix» kabi tarixiy manbalarda ham yuzlar haqidagi ma'lumotlar saqlanib qolgan [15:2]. Yuzlarning boshqa o'zbek qabilalari bilan aralash holda yashab kelgan guruhlar ham mavjud bo'lib, ular qirq-yuz (yuz urug'I va qirq qabilasi birlashmasi), mo'g'ul-yuz, nayman-yuz va boshqa etniknomlar bilan atalgan. Yuzlar etnogenezi qadimgi qipchoq o'zbeklari bilan bog'liq.

Yuzlar asosan, Jizzax, Sirdaryo, Surxondaryo, Samarqand va Toshkent viloyatlarida yashaganlar va quyidagi 3 ta yirik tarmoq: Markabolasi, Qorapchi, Rajabbolasi qismlariga bo'linganlar. Yuzlarning O'rta Osiyoga kirib kelishi XV asr oxiri–XVI asr boshlarida Shayboniyxon boshchiligidagi Dashti Qipchoq o'zbek urug'lari bilan bog'liq Baxmal tumani hududiga ham aynishu vaqtda yuzlarning dastlabki guruhlar kelib o'rtnashgan bo'lishi ehtimoldan xoli emas.

XVIII asr boshlarida o'z siyosiy mavqelaridan foydalanib, joniylar davlatida ko'plab qavmlarning mustaqil ravishda hukmronlik qilishga intilishi kuchaygan. Ayni shu davrda yuzlar ham Mirzacho'l hududida o'zlarining mustaqil humronligini amalga oshirganlar [8:404]. Baxmal tumanida istiqomat qiluvchi o'zbek urug'lari ichida son va mavqe jihatida netakchi o'rinni olgan yuz urug'I bir necha bo'g'in va tarmoqlarga bo'lingan.

Tadqiqotchi X.Doniyorovning yozishicha, ming qabilasining xalqlari shaharga moslashib o'z urug' va qabilalarini unutib yuborganligi natijasida yuzlar mavqei yanada oshadi. Shuningdek, u Toshkent, Sirdaryo va Samarqand viloyatlaridan olingan ma'lumotlariga binoan, juzlarni uchta katta bo'lakka ajratadi: marka bolasi, qarabchi, rajabbolasi. Markabolasi ham ikkita bo'lakka bo'linadi: uyas-solin, . O'z navbatida uyas oltita bo'lakka bo'linadi: kerayt, kal, norin, uyas, oqchepkon, ko'sa, boymoqli yoki cho'pqn.

Baxmal tumani aholisining etnik tarkibi haqida rus generali A.I.Maksheev tadqiqotlarida ham yuz urug'I shajarasi tarixiga keng o'rin berilgan A. I. Maksheev to'palagan etnografik ma'lumotlarda yuz urug'i 8 ta bo'g'ingabo'lingan.

Shunday qilib, yuzlar XVI asrdan XXasr boshlariga qadar yurtimizning ijtimoiy-siyosiy tarixida faol ishtirok etgan qabilalardan biri hisoblangan. XX asr boshlarida O'zbekiston va Tojikiston hududida yashagan yuzlar soni taxminan 60 mingga yaqin bo'lgan. Yuzlar o'zbek xalqi shakllanishida ishtirok etib, uzoq vaqt davom etgan etnik assimilyasiya jarayonida XXasr 20–30 yillarida o'zbeklar tarkibiga qo'shilib ketganlar.

Barlos – o'zbek xalqi tarkibiga kirgan urug'lardan biri. Ili daryosi bo'ylaridan Qashqadaryo vohasiga ko'chib kelishgan. XIV-XV asrlarda shu voha aholisining siyosiy-iqtisodiy va madaniy hayotida muhim rol o'ynagan. Amir Temur barlos qabilasidan bo'lib, sarkarda va viloyat amirlarini shulardan tayinlagan. Barloslarning bir guruhi temuriylar va boburiylar davrida Afg'oniston va

Hindiston hududiga ko'chib o'tgan. XIX asrlarda birgina Dehli shahri atrofida 15 ming barlos yashaganligi tarixiy manbalarda qayd etilgan. Ammo, barlos qabilasining asosiy qismi O'zbekistonning janubiy hududlarida yashab, dehqonchilik va chorvachilik bilan mashg'ul bo'lganlar. Barloslar turkiy tilning qarluq-chigil lahjasida so'zlashgan.

Barloslar haqida "Do'stlik" ordeni sohibi, xalqaro Ahmad YAssaviy mukofoti sovrindori, professor Olimjon Jo'raev shunday ma'lumot beradi.

Mustaqilligimiz bergan imkoniyatlar tufayli o'zligimizni anglash va ota-bobolarimiz kim ekanligini yosh avlodga bildirish maqsadida turli kitoblarda shujaralar yaratildi va yaratilmoqdi. Bu jixatdan Professor O'. Nosirovning "O'zbeklar shajarasi" kitobi xarakterlidir. (Shajara arabcha ma'lum bir urug', avlodning kelib chiqishi va o'zaro qarindoshlik darajasini izchillik bilan sanab ko'rsatuvchi ro'yxat, tarix, silsila .

Urug'larning paydo bo'lishidan oldin avvalo, shuni aytib o'tish lozimki, Olloh eng birinchi insoniyatning otasi Odam Ato xazratlarini, uning chap qovurg'asidan, go'shtidan onamiz Momo Havvoni yaratgan. Insoniyatning birinchi Odam Ato avlodlari uzoq davr taraqqiyotlarini boshidan kechirib, Nuh alayxissalom davriga etib kelgan. Hazrat Nuh a.s.ning uch o'g'li bo'lib; Xom, Som, YOfas (ayrim manba'larda Nuh a.s.ning o'g'illarini to'rt nafar: YOfas, Xom, Som, Kon'on deb yozganlar) davriga kelib ular otalarining taklifi bilan turli viloyatlarga borib yashaganlar. YOfasning o'z avlodi oldida xurmati katta bo'lganligidan unga Abu-t-Turk, ya'ni turklarning otasi degan kuniya berilgan. Biz anashu YOfas (YOfasning sakkiz o'g'li bo'lgan: Turk, Hazar, Saqlob, Rus, Matsak, CHin, Kamari-Kaymol, Torih) avlodidan bo'lamiz va keyinchalik bizning ota-bobolarimiz turli urug'larga bo'lingan. Ana shu urug'lardan eng shijoatlisi va bahodirini Barlos deb ataganlar.

"Zafarnoma"da yozilishicha "Tunlardan birida Qochuli (shunday) tush ko'rdi. Qobulxonaning qo'ynidan bir yulduz uchib chiqdi, (bir oz) chaqnab turgach so'ndi. So'ngra yana bir yulduz chiqdi va so'ndi. Uchinchi bir marotaba bir yulduz (uchib) chiqdi va botdi. To'rtinchi marotaba uning qo'ynidan bir porlab turgan yulduz chiqdi va u butun olamni yoritib turardi. Porloq yulduzdan bir necha yulduzlar ajralib chiqdi va ulardan har biri bir o'lkaga yorug'lik va nur taratib turardi. Ul yorug' yulduz ko'rinmay ketganidan keyi ham tevarak-atrof bir tekis yorug'ligicha qolaverdi. Uyqudan uyg'onib ko'rsa, hali kechaning uchdan bir qismi bor ekan. Tushning ta'biri ustida bir lahza o'ylanib qoldi va shu hayol bilan yana uyquga cho'mdi. U yana tshu ko'ra boshladi. (endi) o'zining qo'ynidan (bir) yulduz uchib chiqdi va so'ndi; etti marotaba shunday bo'ldi. Sakkizinchi marotaba esa bir katta yulduz balqidi, u butun shoxli va dunyoga nur-ziyo taratib turardi. Undan bir necha kichik yulduzlar ajralib chiqdi, har qaysisi bir o'lkani yoritdi. Ul ulkan yulduz mag'rib nutasigacha etib so'ngach, undan ajralib chiqqan yulduzlar porlanishda davom etdilar.

Qochuli ul tush g'ulg'ulasi bilan uyg'onib ketdi, qarasa ayni tong chog'i ekan. O'shal kun otasini tanho topib o'zi kshrgan avvalgi va keyingi tushlarini unga bayon qildi. Tumanaxon ul tushdan

xursand bo'ldi va to'ng'ich o'g'li Qobulxonni oldiga chorlab undan (Qochulidan) tushdan yana bir bor so'radi. U tushni otasiga va akasiga aytib berdi.

Davlat arboblari ilhomli bo'ladilar, - degan hukmga muvofiq Tumanxon har ikkala tushni ham ta'bir qildi va dedi: "Birinchi tushning ta'biri shuldurkim, Qobul (avlodi)dan birin-ketin uch shahzoda xonlik taxtida hkum surgaylar. Biroq, ularning ortidan, ya'ni to'rtinchisidan bir podshoh dunyoga keladi va u olamdagi mamlakatlarni egallaydi (Chingizxon nazarda tutilgan bo'lsa kerak degan taxmin bor). Undan farzandlar bo'ladi va u uzoq-yaqin (erlarni) ularga bo'lib beradi, har birini bir mamlakatga xon qilib tayinlaydi. Dunyodan ko'z yumganidan so'ng, saltanati ma'lum muddat farzandlari qo'lida bo'lib turadi.

Ikkinchi tushning ta'biri shundayki, sening (Qochuli nazarda tutilmoqdi) naslingdan etti valod birin-ketin dunyoga kelib, ular podshoxga vositachilik qilib o'tadilar. Ammo, sakkizinchi marta, ya'na ul buyuk balqigan holat (ta'biri shuki), bir kishi sening naslingdan jahongirlik qilgay (Amir Temur nazarda tutilgan bo'lishi lozim) va ko'p mamlakatlarga podshox bo'lgay. Undan keyingi mamlakat vorisi va hkmdori bo'lib, har biri bir iqlimning shohi bo'ladi..."

Ular (Qabul va Qochuli) ota oldida "Xonlik taxti Qobulxonga bo'lsin, shamshir va hukm yuritish esa Qochuliga berilsin", - deb bir-birlariga so'z berdilar. "Biz farzandlarimizga ham vasiyat qilamiz, (ular) ham avloddan-avlodga ushbu qoidaga amal qilsinlar", - dedilar. SHu haqidagi qarorni uyg'ur yozuvida bitib qo'yidilar, har ikkovlari unga imzo chekdilar; ota ham unga o'zining ol tamg'asini bosdi va uni xon hazinachisiga topshirdilar. Tumanaxonning umri tugagach, Qabulxon xonlik taxtiga o'tiradi. Qochuli esa u bilan yakdillik va muvofiqat maqomini tutadi...

Shundan so'ng podshoxlik taxti navbat bilan Qobulxon va Burton bahodirga tegishli etiladi: Qobulxonning (keyingi) o'g'li Burton-bahodir yurt ayonlari maslahati bilan akasi o'rniga taxtga o'tiradi va otasi Qobulxon qonunlarini qayt tiklaydi. U davlatli bir xon va salobatli podshoh edi. O'sha kezlarda mardlik va aql-idrokda unga teng keladigan topilmas edi. Shu sababdan uning "xonlik" laqabini "bahodirlik" bilan almashtirdilar.

(Bo'rton-bahodir) podshohlik taxtiga o'tiriganda amakisi Qochuli vafot qilgan edi. Uning o'g'li Erdamchiga otasining vazifasini in'om etdi va Sarkardalik Erdamchiga birlashtirildi hamda unga "barloslik" laqabi berildi. Uni Erdamchi-barlos (Erdamchi jangda bahodirlik ko'rsatgani uchun barlos kuniyasi berilgan. Uning avlodlari keyinchalik barloslar nomi bilan yuritilib, Barlos urug'i nomiga aylangan.) deya boshladilar...

Lug'atlarda barlos so'ziga – botir, qo'rqmas, o'z aytganidan qaytmaydigan degan ma'nolarda izoh berilgan. Ana shu jixatdan barloslar turkiy urug'lar orasida qipchoq, arg'un, arlotlardan keyin turadi. Barloslar asosan Turon zamin-O'rta Osiyoning turli viloyatlari va er yuzining boshqa mamlakatlarida ham yashaydilar. Barloslarning "Izbosar", "Shodmonbek", "Muotlar" kabi to'plari bor.

Shodmonbek.Baros uru-ining O'smatdagi shahobchasi. SHodmonoy nomi bilan yuritilib ketganiga sabab Tohirboyning mol-dunyosi behsob bo'lgan ekan. U doimo uz mulkidan xabar olish tashvishida uyda kam bular ekan. Kunlarning birida Usmat kurgonining mingboshisi bir necha amaldorlari bilan yuldan utayotib Tohirboyning uyiga mexmon buladilar. Ular kelgan paytida Tohirboy uyda bulmaganligi sababli, zavjalari mexmonlarni joylashtirib, dasturxonga turli noz-ne'matlarni kuyib, ovkat tayorlashga kirishadi. Uy bekasi eri uyda buldmasa xam uning kilgan mexmondorchiligi gini kurganlar. "Bu kishi ayol bulsa xam beklar kildadigan ishn kildi. Endi uni Shodmonoy emas Shodmonbek deb atoymiz", -degan ekanlar. Shunda Tohirboy mexmonlar oldiga kirsam mexmonlar xursand holda o'tirgan ekanlar. Mexmonlar oldigisha salom berib

Tohirboyga mexmonlar hazillashib. "boy bobo, shu kukndan boshlab zavjanzini Shodmonbek debiz. Kishi kilgan mexmondorchilikni kupchilik erkak kishilar xam kilda olmaydi", deb lutf qilibdilar. Shu-shu Shodmonoyning ismi el orasida Shodmonbeke bulib ketgan ekan. Bedonga barldols-kishlok nomi. Bedona-xosili yuk, kuruk, saxro, donsmiz degan ma'nolarda ishlatilgan. Bedonna suzi shur bedona va keurik bedona t arikasida ishlatiladi. Sho'r Bedona deyilishiga sabab eri xosilsiz, kurik bulganligi uchun shunday atalgan. Keksalarning aytishlaricha, Amir Temur davrida xarbiy mashklar shu erda utkazilib, kushinlar kurikdan shu erda utkazilar ekan. Bedona Barlos-Bedona kurigi ikki kismdan iborat bulib, Bulungur tumaniga karashli kismi SHur Bedona, Baxmal tumaniga karashli kismi Bedona-barlols deb ataladi.

Vadigan-qishloq nomi. Ushbu nomni prof. B.O'rinboyev sharxlab "Vadigan vadj/var/ ia gan/kan-kant/qisimlaridan iborat. Sug'dcha var/vad/ aholi yashaydigan joy va chorva mollari ni saqlash uchun chor atrofi devor bilan o'ralgan qadimgi istehkomni bildiradi. Nomning ikkinchi qismi gan-kan-kant qishloq degan ma'nodadir. Shunday ekan toponim qo'rg'on qishlov degan ma'nodadir. B.O'rinboev, 2007//A.SH. Xramovning yozishmcha, yag'nob vodiysida Vatikan degan toponim bor. U yag'nobliklar/qadimgi sug'd/tilida "yozgi yaylovda yashaydigan joy ma'nosini bildiradi. /A.Xramov, 1978/Hozirgi Vadigan qishlog'ining gnografik o'rnini hisobga olib joy nomiga ta'rif berilsa, qishloqning qadimiy nomini Vadigan "ya'ni" chorvadorlar yozda mollarini olib chiqib yashaydigan tjoy" deb taxmin qilish mumkin"/Q.Hakimov, 2014/

Vadmigan qishlog'ining o'tmishi aynan o'sha "avesto" kitobi da ta'riflangan go'shalar qatoriga kiradi. Vadigan-vad/var/, vagon/kan-kad/kisimlaridan iborat. Sug'dcha var/vad/ aholi yashaydigan va chorva mollari saqlash uchun chor atrofi devor bilan o'ralgan qadimiy istehkomlardan biridir. Nomning ikkinchi qismi goa/kar-kand/, qishldoq" dnmakdir. /S.Azim, 2001/.

Duvlat-qishloq nomi. Prof. S.Qoraev Duvlatlar haqida shunday yozadi. "Duvlatlar/bu qishloqda/qirg'izlarning Manas urug'iga kiradigan dukvlat tarmog'i vakillar yashaydi. Qozoqlarning ham birlik qabila -urug' ittifoqi duvlat/dug'lat// deb atalgan. /S.Qoraev, 2006//

Qishloq nomi b'zan Dug'lat shaklida ham talaffuz qilinadi.

Galaxirmonjoy-joy nomi.Barcha don maxsulot lari yig'ildadinan joy.Ko'p,to'da,mo'l.Dalada ekilgan barcha boshqoli ekinlarni bir joyga to'planib g'osildi olinadigan joy.B. O'rinboevning qayd etishicha,"g'alla-urug' nomi,xirmanjoy daladagi hosilni to'plash va tozalash uchun ajratilgan joy,maydoncha so'zlaridan tashkil topgan.Mang'it qabilasining oqmang'it urug'ining kichik tarmog'i-gala deb atalgan.Oykonim gala urug'i yashovchi xirmanjoyli qishlog'i demakdir"./B.O'rinboev/

Govqishloq- qishloq nomi.Qishloq nomi t arkibidagi gov,gava qo‘shimchalari fras-\*tojik tilida kata,ulkan,,,paxlavon,mu’tabar degan majozis ma’nolapri bor.Abulqosim Firdavsiyning”Shoxnoma” asari qaxramonlarian birining nomi Gav bo‘lgan.Katta,ulkan qishloq-gavqishloq./Q.Hakimov//

Prof.B.O‘rinboev qishloq nomini quyidagicha sharxlaydji.”Toponim gov va qishloqismlaridan tashkil topgan.Ayrim olimlar gav tojikecha”sigir”degan ma’noni bildiradi,desalar boshqalari ob so‘zining variantidir,deydilar.Uchinchilari gov so‘zi fors-tojik tilidakatta,ulkan degshan ma’noni bildiradi ddegan xulosani bayon iqiladilar.Boshqa manbalarda qo‘ng‘irot qabilasi cho‘l urug‘ining bir shahobchasi gav deb atalishi aytiladi.For-tojik tilidagi manbalarda gov/gavd/-chuqur,chuqurlik degan ma’noni anglatganJuda chuqur joydjagi qishlok”/B.O‘rinboev,,,2007/

Qishloqning bunday atalish sababBin’zi keksalarquyidagicha sharxldaydilar.”Emishki,, bir boy kishi farzandini katta tuy toioshalar bilan uylantiradi.Oradan ikki –uchyillar o‘tib bolasi kasallikdan olamdan o‘tadi.O‘g‘lining yili o‘tgandan keyin boy qozining huzuriga borib” .O‘zi qazigan ariqdan suv ichish m umkinmi,deb so‘raydi.SHunda qozi%”-Albatta mumkin,,,,,,,,,..bu ariqni qazish uchun qancha mehnatmgiz singan,deydi.Qozi yonidagi ulomolardan biri%–“Qozim, siz bu kishining fikrini to‘g‘ri tushunmadingish.Bu kishining farzandi bir yil oldin olamdan o‘tgar.Bu kishi hozir sizdan kelinimga uylanishim mumkinmi,deya so‘rab sizdan shariat bo‘yichr ruxsat olmioqchi,-deydi.SHunda qozining jahli chiqib”-Vay gov budasku! devegshan ekan.

### Foydalanilgan adabiyotlar ro‘yxati:

1. Nasirov U. Genealogy of the Uzbeks. - Tashkent-2012. – P. 406-407.
2. Kononov A. N. Razoslovnaya Turkmen. s. 82.
3. Gumilev A. N. Ancient Turks. Tashkent: Science, 2007. - B. 70.
4. Gazievna, A. S. (2025). Яшил иқтисодиёт ва атроф-муҳит муаммолари (Doctoral dissertation, Бюджет даромадларини кенгайтириш мақсадида хизматлар соҳасида ижтимоий-иқтисодий зарари кам бўлган қўшимча даромад манбаларини аниқлаш муаммолари).
5. Alimova, S., & Erkinova, S. (2025). Yashil iqtisodiyot va atrof muhit muammolari. Ижтимоий-гуманитар фанларнинг долзарб муаммолари Актуальные проблемы социально-гуманитарных наук Actual Problems of Humanities and Social Sciences., 5(3s), 52-56.

6. Alimova, S. G., Nargiza, N. N., Ikromjonovna, J. S., Lola, R. D., Isabayeva, D. K., & Sherali, Q. U. (2025). The Role of Educational Management in Improving the Quality of Teaching and Learning. *Cadernos de educação, tecnologia e sociedade* Учредители: University of Minho, 18, 187-194.
7. Alimova, S., Narziyeva, N., Jumanova, S., Djurayeva, L., Isabayeva, D., Usmonova, O., & Abdullayev, D. Role of digital tech in optimizing employee performance in educational organizations: a post-pandemic analysis.
8. Abduganievich, I. S. Important directions of foreign policy of the republic of uzbekistan.
9. Nematov, O. (2024). Development of Tourism in Jizzakh Region Historical and Cultural Factors. *Journal Of Arts And Literature*, 3(5), 37-40.